

SONNI O'RGANISH METODIKASI

Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi Surxondaryo viloyati Termiz tumani

36-umumiy o'rta ta'lif maktabining boshlang'ich sinfi o'qituvchisi

Ergasheva Zarnigor Fazliddin qizi

Narsaning, miqdori, sanog'i yoki tartibini bildirib, qancha? nechta? nechanchi? so'roqlaridan briga javob bo'ladigan so'zlar son deyiladi. Sonlar Son singari belgi tasavvuri bilan aloqador bo'lib, narsaning miqdori, sanog'i va tartibiga ko'ra belgisini ifodalaydi: beshta kitob, uchala talaba, birinchi kurs kabi.

Son narsaning aniq yoki noaniq miqdorini ifodalash xususiyatiga egaligiga ko'ra tildagi ko'p, oz, bir oz singari umumiy miqdor bildiruvchi so'zlardan farqlanib turadi. Sonlar quyidagi grammatik belgilarga ega:

1. Sonlar ot bilan birikkanda so'z o'zgartuvchi affikslar olmaydi, aksincha ularning o'zi otning aniqlovchisi vazifasini bajaradi: O'n sakkiz yashar yigit. birinchi o'rinda bormoq.

2. Ba'zan son va Son birgalikda otning aniqlovchisi vazifasini bajarishi mumkin. Bunday holda son aniqlovchi vazifasida kelgan Sondan avval joylashadi: Beshta baland bino, uchta qora qo'y.

3. Son gapda asosan aniqlovchi va kesim vazifasini bajaradi: Mehnat kishini uchta balodan saqlaydi: yurak siqishdan, axloqiy buzilishdan, muhtojlikdan. Bu xotinning joni bitta emas, mingta (A.Qahhor).

4. Ba'zan sonlar fe'l oldidan kelib, ravish singari hol vazifasini bajaradi: U ariqning labidagi oshrayhon bargidan uch-to'rtta uzib keldi.

5. Sonlar boshqa so'zlardan yasalmaydi, ya'ni son yasalish tizimiga ega emas. Biroq ba'zi sonlardan ot yoki fe'l yasalishi mumkin: uch+lik, ikki+lanmoq kabi.

6. Sonning o'ziga qo'shiluvchi -inchi, -ov, -ala, -ta, -tacha, -lab,-larcha affikslari shakl yasovchilar bo'lib, sonning bir turidan boshqa turini hosil qiladi. Son otga bog'langanda ular orasida maxsus hisob so'zlar, ya'ni numerativlar ishlataladi. Numerativlar kilogramm, gramm, botmon, pud, so'm, tiyin, dona, nafar, hovuch, qarich,

kilometr, qadam, gektar, soat, minut, daqiqa, soniya singari ot turkumiga mansub so‘zlardan tashkil topadi. Sodda sonlar bir o‘zak morfemadan iborat bo‘lgan sonlardir. Hozirgi o‘zbek tilida faol ishlataladigan

23 ta sodda son bo‘lib, ular yozuvda arab va rim raqamlari bilan, shuningdek, harflar vositasida ifodalananadi. Ular quyidagilar: nol, bir, ikki, uch, to‘rt, besh, olti, yetti, sakkiz, to‘qqiz, o‘n, yigirma, o‘ttiz, qirq, ellik, oltmis, yetmis, sakson, to‘qson, yuz, ming, million, milliard. Sonlarning boshqa turlari mazkur sodda sonlarning qo‘shilishi, juftlanishi, takroridan tuziladi. Ayni paytda, sodda sonlar sonning ma’no jihatdan turlarini shakllantirishda ham asos bo‘ladi: beshta, ikkala, to‘rttadan, uchov, o‘nlarcha, oltinchi kabi. Hozirgi tilimizda sodda sonlar qatoridan o‘rin egallaydigan oltmis, sakson va to‘qson sonlari aslida olti-mish, sakkiz-o‘n, to‘qqiz-o‘n singari qo‘shma sonlar asosida hosil bo‘lgan.

O‘zbek tilida ayrim sodda sonlar so‘zlar bilan sinonimik munosabatga kirishadi. Masalan: bir-yakka, yolg‘iz, yagona; ikki-qo‘s, juft kabi. Shuningdek, sodda sonlar tilimizdagи ba’zi so‘zlar bilan omonim, paronim bo‘lishi ham mumkin. Masalan: pichoqning uchi, osmonga uch kabilar uch sonining, qirq (aza marosimi), arqonni qirq kabilar qirq soning omonimidir; to‘rt soni esa nutqda to‘r(uyning to‘ri) oti bilan paronim bo‘lishi mumkin.

Qo‘shma son ikki yoki undan ortiq sodda sonning birikishidan tuzilgan sonlardir: o‘n besh, yigirma sakkiz, bir yuz qirq, uchdan bir, uch butun undan ikki.

Tildagi ba’zi qo‘shma sonlar ham tarixan o‘zining sinonimlariga ega bo‘lgan. Masalan: o‘n ming-tuman, yuz ming-lak, o‘n olti-bir pud kabi.

Juft sonlar ikkita har xil sonning teng aloqadagi takroridan tuzilgan sonlardir. Juft sonlar sodda va qo‘shma sonlarning quyidagi tartibda teng aloqaga kirishuvi orqali shakllanadi: a) sodda son+sodda son: bir-ikki, ikkita-uchta, bitta-yarimta, to‘rt-beshta kabi; b) sodda son+qo‘shma son: o‘n-o‘n beshta, o‘n besh+yigirmata, sakson-sakson beshta kabi; d) qo‘shma son+qo‘shma son: yigirma uch-yigima to‘rt, to‘rt yuz-besh yuz kabi. Nutqda sanoq, dona, taqsim sonlar juft holda qo‘llanganda taxmin, chama ma’nosi hosil bo‘ladi. Takroriy sonlar ikkita bir xil shaklga ega bo‘lgan sonlarning aynan takroridan tuziladi. Nutqda sanoq, dona va taqsim sonlar takroriy sonlar shaklida


ishlatiladi: bir-bir, ikita-ikkita, beshta-beshtadan kabi. Sonlar-ning takrori orqali taqsim son hosil bo‘ladi.

AYRIM METODLARNING QO‘LLANISHI

VEN DIOGRAMMASI metodi

nima?

nechta?



T jadval metodi

VENN DIAGRAMMASI

• O'timli



O'timsiz



XULOSA

Boshlang'ich sinflarda "Son" mavzusini o'rgatish jarayonida o'qituvchi katta malakaga, mahoratga va tajribaga ega bo`lmog`i lozim. Uning har bir darsi bir sahnaviy asarga o`xhashi, bu orqali o`quvchilar qalbiga sezilarli ta`sir o`tkaza olishi kerak. Toki, o`quvchi dars tugasa ham, shu o`qituchining darsini intiqib kutadigan bo`lsin. Umuman, boshlang'ich sinflarda "Son" mavzusini o'rgatish jarayonida shu darslikdagi "Son" mavzusi bilan yaqindan tanishtirish jarayonida mazkur mavzuga bo`lgan ularning qiziqishlarini orttirishga erishilishi lozim bo`ladi. Buning uchun har bir boshlang`ich sinf o`qituvchisi pedagogik mahoratga ega bo`lgan holda ta`lim jarayoniga kirib kelayotgan yangiliklardan boxabar bo`lishi, ularni dars jarayonida bolalarning yoshi va xarakter xususyaitlarini e`tiborga olgan holda qo`llay bilishi lozim bo`ladi. Bundan tashqari, tavsiya qilib shuni aytib o`tish joizki yosh avlodga zamonaviy texnologiyalar bilan dars o`tish va tushuntirish bilan birga ularni har xil o`yinlar va o`ziga xos uslublar bilan birga darsga qiziqtirish maqsadga muvofiq bo`ladi. Bugungi shiddatli davrda

chinakam ma'naviyatli va ma'rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o`z milliy qadriyatlarini, milliy o`zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o`ziga munosib o`rin egallashi uchun fidoiylik bilan kurasha olishi mumkin.” 1 3-sinf ona tili darslarida inrerfaol usullardan foydalanish orqali boshlang`ich sinf o`quvchilarning ona tili grammatikasi bo`yicha bilim va ko`nikalarini o`stirish boshlang`ich sinf o`qituvchilaridan o`qitish jarayoniga katta mas'uliyat bilan yondashishni talab qiladi. Chunki endigina o`z ona tilisining grammatik qonun- qoidalarini o`rganayotgan, harflarni bir-biriga qo`shib, so`zлarni esa bir-biriga qo`shib gap yasashga o`rganayotgan, matnni ifodali o`qish qoidalari bilan tanishayotgan boshlang`ich sinf o`quvchisiga bir vaqtning o`zida ta'lif va tarbiya byerish, ularga sharqona odob-axloq, iymon-e`tiqod, mehnatsevarlik, tinchliksevarlik kabi insoniy fazilatlar haqidagi tushunchalarni singdirish bilan birga ularning ona tilining murakkab grammatikasi yuzasidan tushunchalarini o`stirish bir muncha murakkablikni o`z ichiga oladi. Boshlang`ich sinf o`quvchilarining yoshi, saviyasi va bilimni qabul qila olish qobiliyatlarini hisobga olgan holda dars mashg`ulotlarini tashkil qilish, o`qitish prinsiplari va metodlariga qat'iy amal qilish maqsadga muvofiqli. Biz tajriba-sinov mashg`ulotlarini olib borish jarayonida shunga amin bo`ldikki, darslarda noan'anaviy metodlarni qo`llash, yangi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish, dars qismlarida sport o`yinlaridan, turli xil musobaqalardan yoki qiziqarli o`yinlardan foydalanish o`quvchilarda, nafaqat, chuqur bilim va ko`nikmalarini hosil qilishda, balki insoniy fazilatlarini o`stirib borishda samarali natijalar beradi. Boshlang`ich sinf o`quvchilarining qiziqarli o`yinlarni o`ynashga bo`lgan qiziqishlaridan unumli foydalanib, dars jarayonlarida, ayniqsa, ona tili darslarida tilning grammatik qurulishi bilan tanishtirib borish, mavzuga oid mashqlar bajarishda, qolaversa, uy vazifalarini tekshirishda ko`proq qiziqarli o`yinlardan foydalandik. Qo`llagan usullarimiz orqali o`quvchilarning ona tili grammatikasiga oid tushunchalarini o`stirishga harakat qildik. Natija esa yomon bo`lmadi. Ona tili darslarida noan'anaviy usullardan, qiziqarli o`yinlardan foydalanganimizda o`quvchilarning, avvalo, darsiga bo`lgan qiziqishlari ijobjiy tomongan o`zgardi. O`qish darsiga qiziqmagan o`quvchilarda darsga qiziqish uyg`ota oldik. Eng asosiysi, turli xil qobiliyatları, talant qirralarini rivojlantirishga, bilim

va ko`nikmalarni tez o`zlashtirib olishlariga, ona tili darsi oldiga qo`yilgan maqsadlarga erishishga, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, an'analarimiz, sharqona odob-axloq normalarini rivojlantirishga erishdik, xulosa ba'zan o'quvchilar tomonidan, ba'zan o'qituvchi tomonidan shakllantiriladi. Uzoq muddatli tahlil va tushuntirishdan so'ng xulosani ta'rifmi ko'pincha o'quvchilar shakllantiradi, yasaydi. Bu mavzuda o'qituvchi quyidagicha xulosa yasaydi:

Nechta?, qancha? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar sanoqni, nechanchi? so'rog 'iga javob bo 'Igan so 'zlar tartibni bildiradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Ikromova R. va boshqalar. Ona tili: umumiyoq o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. - Toshkent: O'qituvchi, 2011.- 192 b.
2. Fuzailov S., Xudoyberganova M., Yo'ldosheva Sh. Ona tili: 3-sinf uchun darslik.- Toshkent: O'qituvchi, 2012.- 144 b.
3. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. Boshlang'ich ta'lim fakultetlari uchun darslik.- Toshkent: Noshir, 2009.
4. Qosimova K, Ne'matova A. 2-sinfda ona tili darslari. - Toshkent, 2017.
5. Qosimova K., Fuzailov S., Ne'matova A. Ona tili: 2-sinf uchun darslik. - Toshkent: Cho'lpox, 2020.- 128 b.
6. G'afforova G. va boshqalar. 1-sinfda ona tili darslari. - Toshkent, 2017.
7. G'affarova T. va boshqalar. Ona tili: 1-sinf uchun darslik.- Toshkent: Sharq, 2019.- 112 b.
8. G'ulomova X. va boshqalar. 4-sinfda ona tili darslari.- Toshkent, 2017.
9. G'afforova T., Nurullayeva Sh. Mirzarakimova Z., "O'qish kitobi" (Umumiyoq o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi darslik).-Toshkent: „Sharq”, 2019, 87- 88-betlar
10. G'afforova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. "O'qish kitobi" 1-sinf uchun darslik, "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri. Toshkent-2019-yil. 33-bet.
11. Shayakubov Sh.K., Ayubov R.X "Interfaol ta'lim usullari" "Tafakkur-bo'stoni" o'quv qo'llanma Toshkent: 2002. 92-bet
12. Safarova R., Gulomova M., Inoyatova M., Soliyeva M. "Savod o'rgatish darslari" o'quv qo'llanma Toshkent."Tafakkur" 2002.
13. Yo'ldashev J. G., Usmonov S.A. "Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish" o'quv qo'llanma. – T: Fan va texnologiya, 2008.